



UDK: 159.922.8:314.74:37.015.3

Gulnoza JUMAYEVA

Turon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: zumaevagulnoza40@gmail.com

Turon universiteti dotsenti v.b., PhD L. Urinova taqrizi asosida.

MIGRATSION OMILLARNING O'QUVCHILARDA FRUSTRATSIYA DARAJASI VA TA'LIM MOTIVATSIYASIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada migratsion jarayonlarning o'quvchilarning psixologik holatiga, xususan, frustratsiya darajasining kognitiv va emotsional komponentlariga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqotda migrant oilalar farzandlarining ijtimoiy moslashuv jarayonida duch keladigan psixologik qiyinchiliklari, hissiy beqarorlik va o'quv motivatsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, frustratsiya kuchaygan sari o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik, tashvish va ichki o'qish motivatsiyasi pasayadi. **Kalit so'zlar:** migratsiya, frustratsiya, hissiy beqarorlik, ta'lim motivatsiyasi, psixologik moslashuv, kognitiv jarayon, migrant oila.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF MIGRATION FACTORS ON STUDENTS' FRUSTRATION LEVEL AND EDUCATIONAL MOTIVATION

Annotation

This article examines the impact of migration processes on students' psychological state, with particular attention to the cognitive and emotional components of frustration and their influence on educational motivation. The research identifies the relationship between the psychological difficulties of children from migrant families, emotional instability, and learning motivation. The findings reveal that as frustration increases, students experience higher anxiety, lower self-confidence, and a decline in intrinsic motivation toward education.

Keywords: migration, frustration, emotional instability, educational motivation, psychological adaptation, cognitive process, migrant family.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ ФРУСТРАЦИИ И УЧЕБНУЮ МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В статье рассматривается влияние миграционных процессов на психологическое состояние учащихся. Особое внимание уделено когнитивным и эмоциональным аспектам фрустрации и их воздействию на учебную мотивацию. В ходе исследования выявлена взаимосвязь между психологическими трудностями детей из семей мигрантов, эмоциональной нестабильностью и учебной мотивацией. Результаты показывают, что с ростом уровня фрустрации у учащихся снижается уверенность в себе, повышается тревожность и уменьшается внутренняя мотивация к обучению.

Ключевые слова: миграция, фрустрация, эмоциональная нестабильность, учебная мотивация, психологическая адаптация, когнитивный процесс, семья мигрантов.

Kirish. So'nggi yillarda global migratsiya jarayonlari inson hayotining turli jabhalariga, xususan, ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish jarayonida migrant oilalar farzandlari til, madaniyat va ijtimoiy munosabatlardagi farqlar sababli psixologik bosimni boshdan kechiradilar[11],[13]. Bu esa o'z navbatida hissiy beqarorlik, o'ziga ishonchsizlik va o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Psixologiyada "frustratsiya" shaxsning maqsad sari intilishi jarayonida to'siqlarga duch kelishi natijasida yuzaga keladigan emotsional tanglik holati sifatida izohlanadi[5]. Migratsion omillar esa bu holatni kuchaytiruvchi tashqi ijtimoiy-psixologik bosim sifatida namoyon bo'ladi[12]. Shuning uchun migrant o'quvchilarda frustratsiya va ta'lim motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahliliy ish 2024–2025 o'quv yillari davomida Qarshi tumani Beshkent shahridagi beshta umumta'lim maktabida o'tkazildi. Unda jami 124 nafar o'quvchi ishtirok etdi: 84 nafari migrant oilalarga, 40 nafari esa nomigrant oilalarga mansub edi.

Quyidagi psixologik metodikalar qo'llanildi:

Rosenzweig frustratsiya testi – frustratsion javob turlarini aniqlash uchun[5];

Rogers–Dymond metodikasi – o'zini baholash darajasini o'lchash uchun[3];

Spielberger–Xanin tashvish shkalasi – emotsional beqarorlikni baholash uchun[4];

Rean motivatsion yo'nalish testi – o'quv motivatsiyasi yo'nalishini aniqlash uchun[6].

Olingan natijalar Pearson korrelyatsion tahlili yordamida tahlil qilindi. Statistika natijalar frustratsiya, tashvish va motivatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatdi.

Natijalar. Migrant oilalar farzandlarining 63 foizida yuqori darajadagi frustratsiya, 58 foizida past o'zini baholash, 71 foizida esa kuchli tashvish hissi aniqlangan. Ushbu holatlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan[11].

Aniqlangan asosiy qonuniyatlar:

O'zini past baholovchi o'quvchilarda o'qishga qiziqish sust bo'ladi[3];

Yuqori tashvish hissi frustratsiyani kuchaytiradi[4];

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlov yetishmasa, ta'lim motivatsiyasi pasayadi[12].

Bu natijalar o'quvchilar psixologik barqarorligining ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama. K. Levinning "Frustratsiya-agressiya" nazariyasiga ko'ra, inson o'z oldiga qo'yan maqsadiga erishish jarayonida turli to'siqlarga duch kelganda, unda hissiy tanglik (frustratsiya) kuchayadi[7]. Bu holat shaxsning ichki psixologik muvozanatini buzadi va ko'pincha agressiv yoki himoyaviy xulq-atvor shaklida namoyon bo'ladi (Lewin, 1935; Dollard & Miller, 1939). Migrant o'quvchilar uchun bu holat yanada keskin kechadi, chunki ular yangi ijtimoiy-madaniy muhitda o'z o'rnini topish, til to'siqlari, ijtimoiy stereotiplar va kommunikativ moslashuv kabi murakkab jarayonlardan o'tadilar[11]. Shu sababli, ular o'zlarini begonalashgan, qadrsiz yoki chetga surilgan deb his qilishlari mumkin. Bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirib, ijtimoiy izolyatsiya yoki emotsional charchoqqa olib keladi. Frustratsiyani kamaytirish uchun o'quvchilarni qo'llab-quvvatlovchi, ijobiy muloqot va madaniyatlararo tushunishga asoslangan ta'lim muhiti zarur.

A. Banduraning "Ijtimoiy o'rganish nazariyasi" (1977) inson xulq-atvori bevosita tajriba natijasida emas, balki ijtimoiy kuzatish, taqlid va model o'rganish orqali shakllanishini ta'kidlaydi[1]. Shaxs o'z atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularni baholaydi va ma'lum ijtimoiy mukofot yoki tan olinish orqali o'zlashtiradi. Migrant o'quvchilar bu jarayonda o'zlarini ijtimoiy jihatdan qabul qilingan yoki rad etilganligini sezadilar. Agar ular sinfdoshlari, o'qituvchilar yoki jamiyat tomonidan rad etilgan deb his qilsalar, bu ijtimoiy o'rganish jarayonini to'sib, motivatsiyani pasaytiradi. Aksincha, ular ijobiy ijtimoiy modellarga ega bo'lsalar (masalan, qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi yoki do'stona muhit), bu ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi va ijtimoiy integratsiyasini yengillashtiradi.

J. Rotterning "Nazorat lokusi" konsepsiyasi (1966) shaxsning o'z hayoti va muvaffaqiyatlariga bo'lgan mas'uliyat hissini tushuntiradi. Ichki lokusga ega shaxs o'z natijalarini shaxsiy mehnat, harakat va qarorlar orqali izohlaydi, tashqi lokusga ega shaxs esa muvaffaqiyatsizlik sababini taqdir, omadsizlik yoki tashqi sharoit bilan bog'laydi. Migrant o'quvchilarda ko'pincha tashqi lokus ustun bo'ladi, chunki ular o'zlarining o'qishdagi muvaffaqiyat yoki muammolarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, til bilmaslik, yoki jamiyatdagi stereotiplarga yuklaydilar. Natijada, ularda o'zini nazorat qilish hissi (self-control) pasayadi va o'z harakatlari uchun javobgarlikni his etish darajasi kamayadi. Shu sababli, ularni ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi — ya'ni shaxsiy muvaffaqiyatni o'z mehnati natijasi sifatida baholashga o'rgatuvchi — psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega.

R. Lazarusning stressni baholash modeli (1984) esa insonning stressli vaziyatlarga bo'lgan kognitiv baholash jarayonini asosiy omil sifatida ko'radi[2]. Inson stress manbaini qanday baholasa, unga shunga yarasha psixologik javob beradi: agar u vaziyatni boshqarib bo'lmas deb hisoblansa, stress kuchayadi; agar uni hal etish mumkin deb bilsa, emotsional barqarorlik saqlanadi. Migrant o'quvchilar uchun bu model muhim, chunki ularning stress darajasi nafaqat real qiyinchiliklarga, balki ularni qanday idrok qilishiga bog'liq. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlov, empatiya, ijobiy fikrlash va madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirish orqali frustratsiya darajasi sezilarli kamayadi. Bu yondashuv ularning moslashuvini osonlashtiradi va o'qishga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

K. Rogersning inson markazli yondashuvi (1951) esa shaxsning ichki salohiyatini rivojlantirish va o'zini qadrlash hissini markazga qo'yadi[3]. Rogersning fikricha, insonning psixologik farovonligi "shartsiz qabul qilish" (unconditional positive regard), "empatik tushunish" va "haqiqiy muloqot" orqali shakllanadi. Migrant o'quvchilar uchun bu ayniqsa muhim, chunki ular yangi ijtimoiy muhitda o'zini qadrsiz his qilishi yoki o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. O'qituvchilar va tengdoshlar tomonidan samimiy qabul qilinish, ularning fikrini hurmat qilish va hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlash — o'quvchilarning o'zini anglashini, ichki motivatsiyasini va ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi. Shu tariqa, Rogers yondashuvi migrant o'quvchilarda o'zini hurmat qilish (self-esteem)ni tiklash va psixologik barqarorlikni mustahkamlashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Demak, migrant o'quvchilarning psixologik holati, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi murakkab ko'p omilli jarayondir. Frustratsiya va stressni boshqarish, ijtimoiy o'rganish mexanizmlarini kuchaytirish, ichki nazorat lokusini rivojlantirish hamda o'zini qadrlashni tiklash — ularning muvaffaqiyatli ijtimoiy integratsiyasi va ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu bois ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlar va madaniyatlararo moslashuv dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa va tavsiyalar. Migrant o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasi, o'qishga bo'lgan munosabati va psixologik holati frustratsiya darajasi bilan bevosita teskari bog'liqdir. Frustratsiya oshgani sari o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik, tashvish, befarqlik, ijtimoiy chekinish va o'qishdagi passivlik kuchayadi.

Migrant o'quvchilar ko'pincha yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, til to'siqlari va stereotiplar bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu holatlar ularning ichki motivatsiyasini pasaytiradi va o'qishga nisbatan salbiy hissiyotlarni kuchaytiradi. Shu sababli, ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash, madaniyatlararo tolerantlikni shakllantirish va empatik muloqotni rivojlantirish zarurdir. Shuningdek, ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish, o'quvchilarda ichki nazorat hissini kuchaytirish va ijobiy ijtimoiy modellarni yaratish orqali frustratsiya darajasini kamaytirish mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi, o'ziga ishonchni oshiradi va o'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Migrant o'quvchilarning psixologik barqarorligi va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini ta'minlash uchun kompleks yondashuv zarur: bu — ijtimoiy qo'llab-quvvatlov, empatiya, ijobiy muloqot va shaxsiy yutuq hissini shakllantirishdan iborat. Mazkur omillar birgalikda frustratsiyani kamaytirib, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Mazkur holatni kamaytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Migrant o'quvchilar uchun psixologik yordam markazlari tashkil etish va stressni kamaytiruvchi treninglar o'tkazish[2];

O'qituvchilarni empatik yondashuv, tolerantlik va inklyuziv ta'lim metodlari bo'yicha tayyorlash[10];

Ota-onalar uchun psixologik-ma'rifiy seminarlar o'tkazish, farzandlarning hissiy ehtiyojlarini anglashga o'rgatish[13];

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlov tizimini kuchaytirish, o'quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish.

Frustratsiya darajasini pasaytirish migrant o'quvchilarning hissiy barqarorligini mustahkamlab, ularning o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiyasini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

2. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer.
3. Rogers, C.R. (1961). On Becoming a Person. Boston: Houghton Mifflin.
4. Spielberger, C.D. (1983). Manual for the State-Trait Anxiety Inventory (STAI). Palo Alto, CA.
5. Rosenzweig, S. (1944). An Outline of Frustration Theory. New York: Ronald Press.
6. Rean, A.A. (2008). Psixhologiya lichnosti i motivatsiya povedeniya. SPb.: Piter.
7. Levin, K. (1951). Field Theory in Social Science. New York: Harper & Row.
8. Rotter, J.B. (1966). Internal vs. External Control of Reinforcement. Psychological Monographs, 80(1), 1–28.
9. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
10. Xolbekov, A. (2017). Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsion faolligini shakllantirishning psixologik asoslari. Toshkent: Fan.
11. Murodova, D. (2020). Migrant oilalar farzandlarining ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy o‘ziga xosliklari. Psixologiya va Pedagogika Jurnal, 4(2), 112–121.
12. UNESCO. (2021). Education and Migration: Building Bridges for Inclusion. Paris: UNESCO Publishing.
13. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. (2022). Ta‘lim tizimida migrant bolalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik yondashuvlari. Toshkent.